

## O'ZBEK VA RUS TILLARI O'RTASIDAGI TIL ARALASHUVI JARAYONINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

*Atanazarova Sh.M.<sup>1</sup>*

### *Annotatsiya:*

Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy O'zbekistonning sotsiolingvistik makonida o'zbek va rus tillari o'rtasidagi o'zaro lisoniy kontakt natijasida yuzaga kelayotgan til aralashuvi hamda kodlar almashinuvi jarayonlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bilingvizm sharoitida tillararo interferensiyani yuzaga keltiruvchi ijtimoiy va kommunikativ omillar aniqlanib, ushbu jarayonning turli ijtimoiy qatlamlar nutqidagi funksional xususiyatlari ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Shuningdek, nutqiy vaziyatga bog'liq holda rus tiliga oid leksik va sintaktik birliklarning qo'llanish chastotasi hamda bu holatning so'zlovchilarning lisoniy kompetensiyasiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijasida til aralashuvining milliy til tizimi barqarorligiga ko'rsatadigan ta'siri asoslab berilib, nutq madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

*Kalit so'zlar:* sotsiolingvistika, bilingvizm, til aralashuvi, kodlar almashinuvi, interferensiya, nutq madaniyati, lisoniy kompetensiya.

---

Globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan zamonaviy jamiyatda tillararo kontaktlar natijasida yuzaga kelayotgan lisoniy o'zgarishlarni sotsiolingvistik jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, ko'p tillilik muhitiga ega bo'lgan O'zbekiston sharoitida o'zbek va rus tillari o'rtasidagi funksional aloqalar nutqiy jarayonlarda kodlar almashinuvi hamda interferensiya hodisalarining keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda.[5] Ushbu jarayon nafaqat kommunikativ ehtiyoj mahsuli, balki jamiyatdagi ijtimoiy stratifikatsiya, kasbiy faoliyat hamda ta'lim darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir.

### Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda sotsiolingvistik tahlil, qiyosiy-tipologik yondashuv hamda diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Til aralashuvi jarayonining ijtimoiy determinantlarini aniqlash maqsadida yosh, kasbiy faoliyat hamda nutqiy vaziyat kabi omillar kesimida kuzatuvlar olib borildi. Shuningdek, bilingv nutq namunalarida rus tiliga oid leksik birliklarning funksional qo'llanish darajasi statistik jihatdan tahlil qilindi.[8]

### Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida til aralashuvi asosan leksik va sintaktik darajalarda namoyon bo'ladi. Xususan, yosh avlod nutqida rus tiliga oid terminologik birliklar hamda internet diskursiga xos bo'lgan kalkalarning qo'llanish chastotasi yuqoriligi kuzatildi. Bu holat kodlar almashinuvi jarayonining kommunikativ samaradorlikni ta'minlash bilan birga nutqiy tejamkorlik omili bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.[2]

Kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, texnik va tibbiyot sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar nutqida rus tiliga oid terminlarning faol qo'llanilishi aniqlandi.[4] Bu esa milliy terminologik birliklarning funksional faolligini pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, bilingv nutqda metaforik va situativ kodlar almashinuvi modellari keng tarqalgan bo'lib, bunda muloqot vaziyatiga qarab til tanlash jarayoni amalga oshiriladi.

### Xulosa

---

<sup>1</sup> Atanazarova Shahzoda Muzaffar qizi, SamDCHTI Payariq XTF Filologiya va tillarni o'qitish (rus tili) 2507-guruh talabasi

O'zbek va rus tillari o'rtasidagi til aralashuvi zamonaviy sotsiolingvistik muhitning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Ushbu jarayon kommunikativ ehtiyoj natijasida yuzaga kelgan bo'lsa-da, uning uzoq muddatli ta'siri milliy til tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda milliy terminologik tizimni takomillashtirish orqali til aralashuvi darajasini me'yorlashtirish zarur hisoblanadi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Dadaboyev, H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 208 b.
2. Mahmudov, N. Til. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2017. – 184 b.
3. Rustamov, A. So'z xususida so'z. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 160 b.
4. Беликов, В. И., Крысин, Л. П. Социоллингвистика: Учебник для вузов. – М.: РГГУ, 2001. – 439 с.
5. Вайнрайх, У. Одноязычие и многоязычие. // Новое в лингвистике. Вып. VI. – М.: Прогресс, 1972. – С. 25-60.
6. Крысин, Л. П. Русское слово, свое и чужое: Исследования по современному русскому языку и социоллингвистике. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 888 с.
7. Usmanov, S. O'zbek tilining sotsiolingvistik muammolari. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 12-18.
8. Appel, R., Muysken, P. Language Contact and Bilingualism. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2005. – 224 p.
9. Myers-Scotton, C. Duelling Languages: Grammatical Structure in Codeswitching. – Oxford: Clarendon Press, 1993. – 286 p.
10. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020. – 32 b.